




**Davlat hisobidan  
bepul yuridik  
yordam**

2-betda o'qing



**Har bir uyga...**

2-betda o'qing

# INSON va qonun

2023-YIL  
15-AVGUST  
SESHANBA

№ 32 (1392)

www.hudud24.uz

[www.adolatmarkazi.uz](http://www.adolatmarkazi.uz) [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) [facebook.com/hudud24official/](https://facebook.com/hudud24official/)

@adolat\_nashrlari



**"ADOLAT" milliy  
huquqiy axborot  
markazi nashrlariga  
obuna bo'ling!**



"Adolat  
nashrlari"  
telegram  
kanalida  
kuzating!



## ~ Ishchi guruh SIRDARYODA ~



ADLIYA vazirligi tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlari muammolarini o'rganish hamda huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash sohasida "Adliya-mahalla-maktab" hamda "Adliya tadbirkorga ko'makchi" loyihalarini amalga oshirish bo'yicha namunaviy tizimni yaratish maqsadida Sirdaryo viloyatida uchrashuvlar o'tkazildi.

Adliya vaziri A. Toshqulov rahbarligidagi ishchi guruh o'z faoliyatini Xovos tumanidagi "Tinchlik" mahallasida sayyor qabul bilan boshladi.

Sayyor qabulda subsidiya olish, kadastr hujjatini rasmiylashtirish, ish haqini undirish, ishga joylashish, kommunal sohadagi muammolar yuzasidan 30 ga yaqin murojaatlar kelib tushdi.

Shundan 20 ta murojaatga joyida zarur huquqiy tushuntirish berildi, o'rganish muddat talab qiladigan 10 ta murojaat ish yurituvga qabul qilinib, mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi hamda ijrosi alohida nazoratga olindi.

"Qizil" hudud toifasiga kiritilgan Xovos tumanidagi "Qahramon" mahallasidagi manzilli targ'ibot ham

aholi bilan ochiq muloqotga aylandi. Uchrashuvda dastlab mahallada xavfsizlik va osoyishtalikni ta'minlash muhim vazifa ekani sodir etilgan jinoyatlar sabablari tahlil qilindi, ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar muhokama qilindi. Muloqot mobaynida o'g'irlik, firibgarlik, tovlamachilik, kibexavfsizlik kabi jinoyatlar va bu jinoyatlar uchun belgilangan jazo choralari, korrupsiya va odam savdosi jinoyatlarining ayanchli oqibatlarini haqida to'xtalib o'tildi.


Respublika ishchi guruhi Xovos tumanidagi umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan davlat huquqi va asoslari fani o'qituvchilari bilan ham ochiq muloqotda bo'ldi. Vazir pedagoglar bilan muloqotga kirishar ekan, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishda ularning roli muhimligini alohida ta'kidladi. Uchrashuvda ta'lim tizimidagi muammolar, sohani va huquq ta'limini yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va fikr-mulohazalar bilan o'rtoqlashdi.

Davomi 3-betda



4-betda o'qing

**Sud qarori  
majburiy emasmi?**



5-betda o'qing

**Hamshiraning  
murojaati  
o'rganildi**



7-betda o'qing

**"Sayohat barcha  
uchun!" loyihasi  
ish boshlaydi**



## 2 AKSIYA



JORIY yilning 16-iyunida “Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida”gi qonun imzolandi. Unga ko'ra, davlat hisobidan bepul yuridik yordam oluvchi shaxslar toifasi yanada kengaytirildi. Ta'kidlash kerakki, mazkur qonunning qabul qilinishi fuqarolarning huquqiy himoyaga bo'lgan huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatini kuchaytirishga, kam ta'minlangan shaxslarga davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatish mexanizmlarining qonuniy yo'lga qo'yilishiga bevosita xizmat qiladi.

# DAVLAT HISOBIDAN BEPUL YURIDIK YORDAM

2022-yilda

Samarqand viloyatida

advokatlar tomonidan jinoyat ishlari  
bo'yicha tayinlov asosida >>>**5 ming 83 marta**  
yuridik yordam ko'rsatildi

davlat hisobidan ajratilgan mablag' &gt;&gt;&gt;

**1 milliard 117 million 236 ming 530 so'm**

Muhimi, ushbu qonun kuchga kiringach, bu ko'rsatkichning qamrovi tobora ko'payadi. Boisi, shaxslar jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik, ma'muriy va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam bilan ta'minlanadi.

Qayd etish joiz, bunga qadar adliya organlari tomonidan uyuma-uy yurgan holda “mahallabay” ishlash, tuman (shahar) adliya bo'limlarida tashkil etilgan “Huquqiy ko'mak darchalari”, “Madad” muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkiloti hamda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual qonunchiligiga asosan jinoyat ishlari bunday amaliyot mavjud bo'lgan.

Masalan, 2023-yilning 1-yanvaridan Adliya vazirligi tomonidan fuqarolarga yuridik yordam ko'rsatish jara-yonlarini raqamlashtirish, advokatlarga sohasini sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari faoliyati bilan integratsiya qilishni nazarda tutuvchi “Yuridik yordam” axborot tizimi ishga tushirilgan edi. Mazkur axborot tizimi doirasida, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari himoyasini yanada oshirish maqsadida ular uchun advokatlar tomonidan ixtiyoriy ravishda bepul professional yuridik yordam ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi.

## “CHO'NTAK ADVOKATLAR” AMALIYOTIGA BARHAM BERILADI

“Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida”gi qonunning qabul qilinishi esa davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni elektron tizim orqali tanlash, bu borada inson omilini bartaraf etish, ya'ni, “cho'ntak advokatlar” amaliyotiga barham berish, advokatlar va davlat organlari o'rtasida qog'ozbozlikni kamaytirishga qaratilganidir. Shuningdek, mazkur qonun elektron vositalar yordamida ma'lumot almashish tizimini yo'lga qo'yish, asosiy, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini tekzorklik bilan himoya qilishga qonuniy poydevor yaratdi.

Ma'lumki, qonun bilan davlat hisobidan moliyalashtiril-

digan ikkilamchi bepul yuridik yordam faqat ikkilamchi bepul yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlar reyestriga kiritilgan advokatlar tomonidan ko'rsatiladi. Bundan maqsad barcha advokatlarni bepul yuridik yordam ko'rsatishga majburiy jalb qilmaslikdir. Ya'ni, istalgan advokat ixtiyoriy ravishda Bepul yuridik yordam markazi bilan shartnoma tuzadi va Reyestrga kiritiladi. Biroq, davlat hisobidan moliyalashtiriladigan bepul yuridik yordam faqat Reyestrga kiritilgan advokatlar tomonidan amalga oshirishi, boshqa advokatlarning bepul, ixtiyoriy beg'araz yuridik yordam ko'rsatishini cheklamaydi. Xususan, advokat advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan advokatlik faoliyatining istalgan turi bo'yicha bepul, beg'araz, ixtiyoriylik asosida yuridik yordam ko'rsatishga haqli.

## JAHON TAJRIBASI QANDAY?

Mazkur tartib jahon tajribasida ham keng qo'llaniladi. Masalan, AQSH, Isroil, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Avstraliya, Kanada, Fransiya, Germaniya, Shvetsiya, Bolgariya, Vengriya, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Chexiya, Litva, Latviya, Estoniya, Rossiya, Gruziya, Moldova, Ukraina, Rossiya va Qirg'izistonda davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatishni tashkil etish va boshqarish alohida markaz, byuro, kengashlar tomonidan amalga oshiriladi. Aksariyat davlatlarda ushbu tuzilmalar Adliya vazirligi huzurida tashkil etilgan.

Qonun sentabr oyining ikkinchi yarmidan kuchga kiradi. Bu esa adliya organlariga qonunning mazmun-mohiyati, uning amaliyotga tatbiq etilish mexanizmlari, unda ko'tarilgan masalalarning ahamiyatini targ'ib qilish mas'uliyatini ustuvor vazifa sifatida qo'yadi. Shundan kelib chiqib, Samarqand viloyat adliya boshqarmasi tomonidan joylarda bu borada targ'ibot tadbirlari, o'quv mashg'ulotlari tashkil qilinmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad esa, mazkur qonunning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka, xalqqa yetkazishdir.

# HAR BIR UYGA...

AHOLI va tadbirkorlik subyektlari muammolarini o'rganish hamda huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash sohasida Sirdaryo viloyatida Adliya vazirligi tomonidan o'tkazilayotgan “Har bir uyga bepul huquqiy yordam” aksiyasi doirasida respublika ishchi guruhi Yangiyer shahar “Fazilat” mahallasida bo'ldi. Shahar markazida joylashgan ushbu mahallada bugungi kunda 2 ming 687 nafar aholi istiqomat qiladi. Ishchi guruh rahbari, Adliya vaziri A. Toshqulov dastlab mahalla beshligi faoliyati bilan tanishdi. Mahallada fuqarolarning huquqiy bilimini tizimli ravishda oshirish, mahallada sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan ishlarini tashkil etish holatini o'rgandi.

Shuningdek, jinoyatchilik ko'rsatkichi bo'yicha “qizil” hudud toifasiga kiritilgan ushbu mahalladagi vaziyat bilan yaqindan tanishish maqsadida Adliya vaziri uyuma-uy yurgan holda aholi bilan suhbatlashdi.

Botirjon Tojiboyev yosh bo'lishiga qaramay novvoychilik bilan shug'ullanib keladi. – Bu ota kasb, oilamiz uchun yaxshi daromad manbai, – deydi u vazir bilan muloqotda.

Darhaqiqat, tadbirkorlik subyektlarining muammo va masalalarini bevosita o'rganish sohani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Respublika ishchi guruhining yangiyerlik tadbirkorlar bilan yuzma-yuz uchrashuvi ushbu yo'nalishdagi muammolarni aniqlash imkonini berdi.

Adliya vazirligining Yangiyer ixtisoslashtirilgan maktabida bir guruh pedagoglar bilan uchrashuvi rasmiyatchilikdan xoli, ochiq muloqot ruhida tashkil etildi. Tadbirida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sohaga ilg'or tajribalarni tatbiq etish, pedagog kadrlarning huquqiy maqomini yanada mustahkamlash, ayniqsa, huquq ta'limini rivojlantirish borasida fikr-mulohazalar yuritildi.



**Dilnoz UMURZOQOVA,**  
Sirdaryo viloyat adliya  
boshqarmasi mas'ul xodimi



**Salohiddin NURIYEV,** Samarqand viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i

## ~ Ishchi guruh SIRDARYODA ~

Davomi. Boshlanishi 1-betda

Ishchi guruhi xovoslik yoshlar bilan uchrashib, ularning maqsad va intilishlari, muammo va takliflari bilan yaqindan tanishdi. Tuman aholisining 22 ming 540 nafarini yoshlar tashkil qiladi. Tadbirida dastlab yoshlarning konstitutsion huquq va majburiyatlarini, yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari haqida so'z

yuritildi. Ochiq muloqot davomida tadbirkorlik, bandlik kabi masalalar yuzasidan yigit-qizlarning murojaatlari va muammoli masalalari tinglanib, murojaatlarni ijobiy hal etish uchun mas'ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

Shuningdek, sog'liqni saqlash sohasini takomillashtirishga qaratilgan

islohotlar ijrosi Sirdaryo viloyatida qay darajada, bugun tizimda yechimini kutayotgan qanday muammolar borligiga ham e'tibor qaratildi. Yangiyer shahar va Xovos tuman tibbiyot birlashmalari shifokorlari bilan muloqotda ayni mavzuda so'z bordi. Uchrashuv mobaynida tizim xodimlari bilan o'zaro fikr almashildi, ularning

muammo va takliflari tinglandi. Shuningdek, tadbirida sog'liqni saqlash tizimini korruptsiyadan xoli sohaga aylantirish, tizimga ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini joriy qilish masalalariga alohida urg'u berildi.

Uchrashuvlar yakunida ishtirokchilarga qonunchilikdagi yangiliklarga doir targ'ibot materiallari tarqatildi.

SO'RAGAN EDINGIZ

MEHNAT QONUNCHILIGI



– **ISH staji 15 yil, nogironligi bo'lgan xodim mehnat ta'tiliga chiqishi kerak. Amaldagi mehnat qonunchiligiga ko'ra, ishlovchi nogironlarga necha kun mehnat ta'tili beriladi?**

Mahbuba EGAMNAZAROVA,  
Farg'ona viloyati



## NECHA KUN TA'TIL BERILADI?

– Mehnat qonunchiligida nogironligi bo'lgan shaxslarga bir qator imtiyozlar berilgan, albatta. Jumladan, Mehnat kodeksining 218-moddasi birinchi qismiga ko'ra, quyidagilarga yoshi va sog'lig'ining holati hisobga olingan holda har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'til beriladi:

- o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga – **o'ttiz kalendar kun;**
- I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlarga – **o'ttiz kalendar kun.**

Mehnat kodeksining 222-moddasi birinchi qismiga ko'ra, har yilgi mehnat ta'tilining umumiy davomiyligini hisoblab chiqarishda qo'shimcha ta'tillar har yilgi asosiy eng kam ta'til yoki har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'tilga qo'shib jamlanadi.

Mehnat kodeksining 219-moddasida har yilgi qo'shimcha ta'tillar:

Mehnat kodeksining 481-moddasiga muvofiq mehnat sharoitlari noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlarga;

Mehnat kodeksining 483-moddasiga muvofiq noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ish bajarayotgan xodimlarga;

Mehnat kodeksining 220-moddasiga muvofiq bitta tashkilotda yoki tarmoqda ko'p yillik ish stajiga ega bo'lgan xodimlarga;

qonunchilikda, jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida, ichki hujjatlarida, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan boshqa hollarda berilishi belgilangan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ishlovchi I, II guruh nogironlariga 30 kalendar kundan iborat asosiy uzaytirilgan ta'til beriladi, shuningdek, nogironligi bo'lgan xodimga kodeksning 219-moddasida ko'rsatilgan qo'shimcha ta'tillarni ham berish mumkin.

Misol uchun, deylik, xodim II guruh nogironi. Uni ta'tilga chiqarishda 218-moddaning birinchi

qismiga ko'ra, asosiy uzaytirilgan ta'til muddati 30 kalendar kundir.

Ish stajiga ko'ra, ya'ni 220-moddaga binoan unga 15 yil uchun 6 kalendar kun qo'shib beriladi.

Aytaylik, jamoa shartnomasida barcha uchun 6 kalendar kun belgilangan. Ya'ni,  $30+6=42$  kun. Agarda bu xodim ayol kishi bo'lsa, xodimning holati 401-moddadagi talabga to'g'ri kelsa, 4 kalendar kundan iborat ta'til ham qo'shib beriladi. Bu holda nogironligi bo'lgan xodimning umumiy mehnat ta'tili 46 kalendar kunni tashkil qiladi.

Eslatib o'tamiz, 429-moddaning uchinchi qismiga ko'ra, I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimni yillik mehnat ta'tilidan chiqarib olishga yo'l qo'yilmaydi. Kodeksning 234-moddasi uchinchi qismiga ko'ra, I yoki II guruh nogironligi bo'lgan xodimlarning har yilgi uzaytirilgan asosiy mehnat ta'tillaridan asli holda foydalaniladi. Shuningdek, mehnat ta'tilini pullik kompensatsiya bilan almashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Eslatmadan kelib chiqilsa, I va II guruh nogironlari uchun mehnat ta'tilini pullik kompensatsiyaga almashtirish mumkin emas. Ya'ni, nogironligi bo'lgan xodimning 30 kalendar kundan iborat asosiy uzaytirilgan ta'tilidan faqat asli holda foydalanish kerak. Lekin yuqoridagi misolda keltirilgan misolga o'xshash holatlarda, ya'ni qo'shimcha 12 kun kompensatsiya qilinishi mumkin.

Shuningdek, kodeksning 401-moddasidagi talabiga ko'ra, o'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolaning yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolaning ota-onasidan biriga (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxsga) har yili davomiyligi kamida to'rt kalendar kun bo'lgan haq to'lanadigan qo'shimcha ta'tilni ham keyingi ish yiliga ko'chirishga yoki uni pullik kompensatsiya bilan almashtirishga yo'l qo'yilmaydi.



AMALDAGI qonunchilikda issiq havoda xodimlarga yengillik berish bo'yicha muayyan norma mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi hamda "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, barcha korxonalarda xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan mehnat sharoitlari yaratilgan bo'lishi kerak. Bunday sharoitlarni yaratib berish ish beruvchining majburiyatiga kiradi.

Mehnat vazirligi bergan tavsiyaga ko'ra, mehnat sharoitlari bo'yicha yilning issiq davrida ochiq maydonlarda bajariladigan ishlar ish kategoriyasiga muvofiq, havo harorati  $34,2^{\circ}\text{C}-36,0^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo'lganda inson sog'lig'i uchun o'ta xavfli hisoblanib (0141-03-sonli Sanitariya qoidalari va me'yorlari), mazkur holatda ish rejimini o'zgartirgan holda, ya'ni ish vaqtini kunning salqin vaqtlariga ko'chirgan holda ish tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Agarda xodim ochiq maydonda (qurilish maydonlarida, dalalarda) faoliyatini amalga oshirayotgan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan mavsumga mos bo'lgan himoya vositalari ajratilishi, ish rejimi o'zgartirilishi (dam olish vaqtlarini uzaytirish yoki ishlash soatlariga rioya etilishini, ish vaqtining qisqartirilishi), shuningdek xodimlar bepul toza ichimlik (mineral) suv bilan ta'minlanishi lozim. Shu davr mobaynida xodimning o'rtacha ish haqi saqlab qolinadi.

Korxonadagi bunday ishlarning ro'yxati va ularni bajarishda ish vaqtining muayyan muddati tarmoq (tarif) kelishuvlarida, jamoa shartnomalarida belgilab qo'yiladi, agar ular tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib olingan holda amalga oshiriladi.

Mehnat kodeksiga muvofiq, xodim ish jarayonida o'zining hayoti yoki sog'lig'iga tahdid soluvchi holatlar yuzaga kelib qolgan to'g'risida ish beruvchiga darhol xabar qilishi, mehnatni muhofaza qilish qoidalari rioya etilishini tekshirib borish va nazorat qilish bilan shug'ullanuvchi organlar ana shu holatlarni tasdiqlagan taqdirda, ish beruvchi bu holatlarni bartaraf etish choralari o'rinishi lozim.



Najmiddin MAMADALIYEV,  
Mirzacho'l tuman adliya bo'limi yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti



Savolga Marg'ilon shahar yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti Sherzod TOLIBOV javob berdi

## 4 "MADAD" JAVOB BERADI

## SAMARQAND TUMANI



## Uyimizni nomimizga o'tkaza olamizmi?

– BIZNING uyimiz otamizga tegishli bo'lib, otam uyni oldi-sotdi shartnomasi orqali 1999-yilda bir rus ayoldan sotib olgan. Lekin uy otamning nomiga notarial rasmiylashtirilmagan. Uyning kadastr hujjatlari ham yangilanmagan. Hozirgi kunda uy eski egasining nomida. U ayol 1999-yildan beri bu uyda yashamaydi. Otam esa vafot etgan. Shu uyni nomimizga rasmiylashtirishning imkoni bormi?

Amirxon MELIYEV

– Fuqarolik kodeksining 187-moddasida egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi mudat nazarda tutilgan bo'lib, bunda mulkdor bo'lmagan, lekin ko'chmas mol-mulkka 15 yil davomida yoki boshqa mol-mulkka 5 yil davomida o'zini kabi halol, oshkora va uzluksiz egalik qilgan shaxs ushbu mol-mulkka nisbatan mulk huquqini olishi mumkinligi ko'rsatilgan. Agarda haqiqatan ham ushbu yerda siz ancha yillardan beri yashayotganlik faktoringizni isbotlovchi dalillar bo'lsa, o'zingiz yashayotgan manzildagi kadastr bo'limiga murojaat qilasiz. Shuningdek, egalik huquqini belgilash bo'yicha sudga murojaat qilishingiz ham mumkin.

## SAMARQAND SHAHRI



## To'liqsiz ish rejimida ishlashga haqqim bormi?

– 2 yoshli farzandim bor. To'liqsiz ish vaqti rejimida ishlashga haqqim bormi?

Dilora IMAMOVA

– Mehnat kodeksining 186-moddasiga ko'ra, homilador ayolning, o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bola (o'n olti yoshgacha bo'lgan nogironligi bo'lgan bola) ota-onasidan birining (ota-onaning o'rmini bosuvchi shaxsning), shuningdek oilaning betob a'zosini parvarishlashni amalga oshirayotgan shaxsning iltimosiga ko'ra tibbiy xulosaga binoan to'liqsiz ish kunini belgilashi shart. Bunda mehnat shartnomasi taraflarning kelishuviga ko'ra xodimga ishga qabul qilish chog'ida va keyinchalik to'liqsiz ish vaqti (to'liqsiz ish kuni (smena) va (yoki) to'liqsiz ish haftasi, shu jumladan ish kunini qismlarga bo'lgan holda) belgilanishi mumkin. To'liqsiz ish vaqti ham muddati cheklanmagan holda, ham mehnat shartnomasi taraflari kelishgan har qanday mudatga belgilanishi mumkin. Siz mazkur holatda to'liqsiz ish vaqtida ishlash huquqiga egasiz va ish beruvchi bilan kelishgan holda mehnat shartnomasiga o'zgartirish kiritish haqida kelishib oling.

## NAMANGAN VILOYATI

## Qayta topshirish uchun vaqt beriladimi?

– Oliygoch talabasiman. Bahorgi semestrda bitta fandan imtihondan o'ta olmadim. Menga imtihonni qayta topshirish uchun vaqt beriladimi?

Gulchirov DOLIMOVA

– O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 26-sentabrda Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 3069-son buyrug'iga ko'ra, 3 tagacha fandan akademik qarzdorligi bo'lgan bitiruvchi kurs bo'lmagan talabalarga 1 oy muddat beriladi. Bunda bahorgi semestr natijalari akademik qarzdor talaba tegishli fan (fanlar) bo'yicha oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turlarini yangi o'quv yili boshida topshiradi. Agarda siz bahorgi semestr yakuniy nazorat natijalaridan norozi bo'lsangiz, apellyatsiya tartibida universitet o'quv bo'limiga murojaat qiling, bunda shikoyatingiz tuzilgan komissiya ishtirokida ko'rib chiqilib, lozim bo'lsa, qayta tekshiruvga yuboriladi.

## SAMARQAND SHAHRI



## Nikohdan o'tish muddatini qisqartirsa bo'ladimi?

– Onam betobligi uchun to'yimizni tezlashtirmoqchimiz. Nikohdan o'tish uchun bir oylik muddatni qisqartirish tartibi qanday?

Oyatulloh SAMIYEV

– Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrda "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, nikoh tuzish nikohlanuvchilarning FHDYo organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Alohida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar) nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin. Demak, siz ushbu holatni FHDYo organiga tushuntirib, qonuniy huquqlaringizdan foydalanishingiz mumkin. Bunda onangizning kasalligi haqidagi ma'lumotnomani taqdim etishingiz talab qilinadi.

## PAXTACHI TUMANI



## Sud qarori majburiy emasmi?

– Sud qarori asosida uyga kiritilgan ayolini majburiy tartibda uydan chiqarib yuborgan ering qilmishi yuzasidan qaysi davlat organiga murojaat qilinishi kerak?

Zuhra SOBIROVA

– "Sud hujjatlari va boshqa organ hujjatlarini ijro qilish to'g'risida"gi qonunga muvofiq, sudning uy-joyga majburiy kiritish to'g'risidagi hal qiluv qarori bo'lishiga qaramasdan, er o'z ayolini uydan majburan chiqarsa, prokuratura organiga murojaat qilinishi kerak. Mazkur holatda sud hujjatining ijrosini ta'minlamaganlik holati yuzasidan majburiy ijro byurosi tegishli harakatlarni amalga oshiradi.

## BULUNG'UR TUMANI



## Tibbiy xulosani qayerdan olsam bo'ladi?

– Nogironlik sababli ortopedik moslamalarga ehtiyojim bor. Buning uchun tibbiy xulosani qayerdan olsam bo'ladi?

Doniyor YANGIBOYEV

– Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 1-iyuldagi "Muhtoj shaxslarni protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta'minlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroriga ko'ra, muhtoj shaxslarga protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining yoki Tibbiy-maslahat komissiyasining muhtoj shaxslarning protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalariga muhtojligi to'g'risidagi tibbiy xulosasi asosida beriladi. Bunda tibbiy xulosalar muhtoj shaxslarning doimiy yashash joyi bo'yicha beriladi.

## SAMARQAND SHAHRI



## Ishga kirishda sinov qo'llaniladimi?

– Shu yil davlat granti asosida oliy ta'lim muassasasini tugatdim. Ishga kirishimda menga dastlabki sinov qo'llaniladimi?

Muhiddin AVEZOV

– Mehnat kodeksining 129-moddasiga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarini davlat granti asosida tamomlagan talabalar dastlabki sinov muddatisiz ishga kira oladi. Biroq, bu imtiyoz faqat davlat granti asosida OTMni tugatgan talabalarga egallagan mutaxassisliklari bo'yicha birinchi marotaba ishga kirayotganlaridagina amal qiladi. Ya'ni, agar davlat granti bitiruvchisi birinchi marta dastlabki sinov muddatisiz ishga olinsa va u ishdan bo'shab, boshqa ishga kirmoqchi bo'lsa, unga nisbatan bu imtiyoz amal qilmaydi.



SAMARQAND

Xodimlarga bir yillik maosh

TO'LANMAGAN

**TOYLOQ** tumanidagi 21-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining bir guruh ishchilariga bir yillik ish haqi to'lab berilmagan. Bundan norozi bo'lgan ishchi-xodimlar tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

O'rganish jarayonida ma'lum bo'lishicha, tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan 21-bolalar bog'chasining 10 nafar ishchi-xodimiga 2020-yilning yanvar oyidan 2020-yilning dekabr oyiga qadar bog'chada ta'mirlash ishlari olib borilgani vaji bilan 114 million 174 ming 858 so'mlik ish haqi to'lanmagan.

Vaholanki, o'sha vaqtda amalda bo'lgan eski tahrirdagi Mehnat kodeksining 154-moddasiga ko'ra, ish beruvchi o'zining moliyaviy holatidan qat'iy nazar, xodimga bajargan ishi uchun haqni belgilangan mehnat haqi shartlariga muvofiq to'lashi shart. Jumladan, mazkur tartib amaldagi Mehnat kodeksining 244-moddasida ham o'z ifodasini topgan.

Yuqoridagilarga ko'ra, tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga nisbatan maktabgacha ta'lim tashkilotining 10 nafar xodimining qonuniy manfaatini ko'zlab ularning ish haqini undirish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Toyloq tumanlararo sudiga da'vo arizalari kiritildi va da'vo arizalar sud tomonidan to'liq qanoatlantirildi.

Munis USMONOV,  
Toyloq tuman adliya bo'limi mas'ul xodimi

BUXORO

HAMSHIRANING

MUROJAATI O'RGANILDI



BUXORO tumanidagi "Istiqbol" mahallasida yashovchi fuqaro O. Choriyeva tuman tibbiyot birlashmasi mutasaddilari tomonidan oylik ish haqi to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

O'rganish davomida aniqlanishicha, Buxoro tuman tibbiyot birlashmasining 2023-yil 30-maydagi buyrug'i bilan birlashmaning ko'p tarmoqli markaziy poliklinikika patronaj hamshirasi O. Choriyevaga 2023-yil 17-apreldan boshlab bola parvarishi ta'tili tugamasdan 0,5 hissa ko'p tarmoqli markaziy poliklinikika patronaj hamshirasi vazifasiga ishga chiqishga ruxsat berilgan.

Shunga muvofiq, patronaj hamshirasi O. Choriyeva 2023-yil 1-maydan 2023-yil 17-may kuniga qadar TTB ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasida, 2023-yil 17-maydan so'ng esa shifoxona qoshidagi ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasida o'z faoliyatini davom ettirgan.

Ammo, O. Choriyevaning 2023-yil 17-maydan 31-may kuniga qadar ishlagani haqida KTMP-2 mutaxassisi N. Umurova tomonidan tabel rasmiylashtirilib, oylik ish haqi qisman hisoblanib to'langan bo'lsa-da, hamshiraning 2023-yil 1-maydan 17-mayga qadar ishlagan davri uchun

KTMP-1 tomonidan tabel rasmiylashtirilmagan, oqibatda may oyining shu davri uchun oylik ish haqi hisoblanmagan. O. Choriyevaga qo'shimcha tabel rasmiylashtirilib, iyun oyining tabeli bilan birgalikda birlashma buxgalteriya bo'limiga kechikib taqdim qilgan. Ammo TTB buxgalteriya bo'limi O. Choriyevaga taqdim qilingan qo'shimcha tabel asosida may oyidagi faoliyati uchun oylik ish haqini iyun oyi ish haqi bilan ham to'lab bermagan.

Amaldagi Mehnat kodeksining 253-moddasida belgilanganidek, xodimlarga ish haqi to'lash muddatlari jamoa shartnomasida yoki ichki hujjatda, ular mavjud bo'lmaganda esa mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan muddatlarda belgilanadi va har yarim oyda bir martadan kam bo'lishi mumkin emas. Xodimlarga oylik ish haqi, qoida tariqasida, o'n olti kundan ko'p bo'lmagan tanaffus bilan ikki qismga bo'lingan holda (bo'nakda va qolgan qismi miqdorida) to'lanadi.

Ish beruvchi xodimning so'rovi-

ga ko'ra uni ish beruvchi tomondan xodimning ish haqini hisob-kitob qilish chog'ida amalga oshirilgan hisoblashlar va ushlab qolishlar to'g'risida xabardor qilishi shart.

Ish beruvchi ish haqini to'lash kechiktirilgani uchun xodim oldida ushbu Kodeksning 333-moddasida belgilangan miqdorda moddiy javobgar bo'ladi.

Yuqoridagilarga ko'ra, tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i nomiga qonun buzilishi holatini bartaraf etish hamda tuman TTB-ga qarashli ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi patronaj hamshirasi O. Choriyevaga 2023-yil 1-maydan 17-maygacha ishlagan davri uchun oylik maoshini pullik kompensatsiya bilan birgalikda to'lab berilishini ta'minlash yuzasidan taqdimnoma kiritildi. Hamshiraning mehnat huquqi himoya qilinishi, ish haqi undirib berildi.


Abdurahimxo'ja BAFAYEV,  
Buxoro tuman adliya bo'limi boshlig'i

QORAQALPOG'ISTON

BEKOR TURIB QOLGAN

XODIMGA ISH HAQI

TO'LAB BERILDI



**FUQARO M.M.** oylik maoshi to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib, To'rtko'l tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

Aniqlanishicha, M.M. tuman maktabgacha ta'lim bo'limida kadrlar bilan ishlash shobasi mudiri lavozimida ishlab kelgan. Prezidentimizning 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlariga muvofiq, tuman xalq ta'limi bo'limi va tuman maktabgacha ta'lim bo'limlari qo'shilib, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi sifatida qayta tashkil etilgan. Mazkur farmonlarga asosan M.M.ga tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan mehnat shartnomasi ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilinishi to'g'risida ogohlantirish xati berilgan, biroq mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi ogohlantirish xati muddati o'tib ketgan bo'lsa-da, u bilan tuzilgan mehnat shartno-

masi bekor qilinmagan, natijada xodim ish beruvchining aybi bilan bekor turib qolgan, xodimga may-iyun oylari davomida ish haqi to'lanmagan.

Vaholanki, amaldagi Mehnat kodeksining 266-moddasiga asosan, ish beruvchining aybi bilan bekor turib qolgan vaqt uchun xodimning o'rtacha ish haqi miqdorida haq to'lanishi belgilangan.

Mazkur holat yuzasidan, tuman adliya bo'limi tomonidan M.M.ga to'lanmay qolgan ish haqi va boshqa tegishli to'lovlar uchun 4 million 432 ming 902 so'm miqdoridagi mablag'ni to'lash bo'yicha tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i nomiga taqdimnoma kiritildi va fuqaroning huquqi tiklandi.

Nursulton SAPARBOYEV,  
To'rtko'l tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

SURXONDARYO

O'RINDOSHLIK ASOSIDA

ISHLOVCHI SHAXSLARGA

MEHNAT TA'TILI

BERISH TARTIBINI BILASIZMI?



MEHNAT kodeksining 439-moddasida o'rindoshlik asosida ishlovchi shaxslarga yillik mehnat ta'tili berish tartibi keltirib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra, o'rindoshlik asosida ishlovchi shaxslarga yillik asosiy ta'tillar, shuningdek, o'rindoshlar haqli bo'lgan qo'shimcha mehnat ta'tillari asosiy ish joyidagi yillik mehnat ta'tili bilan bir vaqtda beriladi.

Agar o'rindoshlik asosida ishning birinchi ish yilida xodim olti oydan kam ishlagan bo'lsa, o'rindoshlik asosida ishda yillik mehnat ta'tili uchun ishlangan vaqtga mutanosib ravishda haq to'lanadi.

Birinchi ish yilida olti oy ishlagan o'rindoshlarning yillik mehnat ta'tiliga, shuningdek, ishning keyingi yillari uchun yillik mehnat ta'tiliga o'rindoshlik asosida ishning o'rtacha ish haqidan kelib chiqqan holda odatdagi tartibda haq to'lanadi.

Asosiy ish joyi bo'yicha yillik mehnat ta'tilining davomiyligi o'rindoshlik asosidagi ishdagi mehnat ta'tilining davomiyligidan ko'p bo'lgan hollarda, ish beruvchi o'rindoshning iltimosiga ko'ra, unga o'rindoshlik asosidagi ishdagi yillik mehnat ta'tildan tashqari asosiy ishidagi yillik mehnat ta'tili va o'rindoshlik asosidagi ishning yillik mehnat ta'tili davomiyligi o'rtasidagi farqni tashkil etuvchi kunlarga ish haqi saqlanmaydigan ta'til ham berishi shart deb ko'rsatilgan.

Sherzod ABDULLAYEV,  
Qiziriq tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

## 6 JARAYON

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI Konstitutsiyasi va "Sudlar to'g'risida"gi qonunga asosan, sudyalarda odil sudlovni amalga oshirish jarayonida fuqarolarning huquq va erkinliklari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlar bilan bog'liq fuqarolik, jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlikka doir ishlarni ko'rib, qonuniy, adolatli hal etishdek mas'uliyatli vazifani amalga oshiradi.

## Odil sudlov samaradorligi sudyalarning bilim va kasbiy malakasiga bog'liq

Bu esa o'z navbatida, sudyalardan chuqur huquqiy bilimga ega bo'lishni va ishlarni ko'rib chiqishda mavjud bilim va amaliy ko'nikmani beg'araz, xolisona va to'g'ri qo'llay olishini, shu bilan birga, doimiy ravishda kasbiy bilim darajasini oshirib borishini, jamiyat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar bilan hamnafas yashashini taqozo etadi.

Bu, O'zbekiston Respublikasi sudyalari odob-axloq kodeksining 10-moddasida ham o'z aksini topgan bo'lib, sudya o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarishi uchun o'z malakasi va kasbiy bilimlarini muntazam oshirib borishi, amaliy ko'nikmalarini va shaxsiy fazilatlarini takomillashtirib borishi shart.

Shu bois, quyida sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha faoliyatining asosiy talablaridan biri hisoblangan o'z bilim va ko'nikmasini oshirib borish borasidagi ayrim tavsiya hamda yaratilayotgan imkoniyatlar xususida to'xtalish zarur.

Birinchisi, sudyalarda o'z bilim va kasbiy ko'nikmalarini oshirib borish uchun mustaqil o'z ustida ishlashni yo'lga qo'yishi lozim.

Sudyaning mustaqil ta'lim olishi – kundalik hayotning bir qismi bo'lib, unda o'z bilim va ko'nikmalarini maxsus ta'lim muassasalariga bormasdan, tegishli dasturlar asosida o'qimasdan, uyda va ish faoliyati davomida oshirib borishni nazarda tutadi.

Mustaqil ta'lim olish jarayonida sudya, avvalambor, doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, izlanishi, amaldagi qonun hujjatlari va ularni amaliyotda to'g'ri qo'llashga oid adabiyotlarni, sud amaliyotini muntazam kuzatib, tahlil qilib borishi, qaror qabul qilishda o'zi va boshqa sudyalarga yo'l qo'ygan xato va kamchiliklari sabablarini tahlil o'rganib borishi va o'z faoliyatida ularni takrorlamaslik choralarini ko'rish lozim.

Mustaqil ta'lim olishni samarali tashkil etishda sudya Oliy sud plenumi qarorlarini, sud-huquq so-

hasiga oid milliy va xorijiy yuridik adabiyotlar va nashrlarni o'rganib borishi, ish faoliyati davomida yuzaga keladigan muammolar va mu-nozarali masalalarni hamkasblar bilan muhokama qilishi va maslahatlar olishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, sudya o'z dunyoqarashini yanada kengaytirish, huquqiy bilimlarini yuksaltirish maqsadida tajribali, bilimli, ma'naviy yetuk insonlar bilan muloqot qilishi, ularning fikr-mulohazalari va tavsiyalari asosida tegishli xulosalar chiqarishi ish faoliyati samaradorligini oshirishga, muayyan holat bo'yicha qaror qabul qilishda ichki ishonchini mustahkamlashga ko'maklashadi. Bu o'rinda, sudyalarda bilan o'tkazilayotgan ma'naviyat va ma'rifat darslari, ko'p yillik ish tajribasiga ega faxriy sudyalarda bilan muloqotlar, seminar mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etish lozim.

Bu borada, jamoatchilik asosida ishlovchi, sudyalarning onlayn tarzda erkin fikr almashishini tashkiliy ta'minlash maqsadida "Sudyalarda klubi" tashkil etildi va unga huquq sohasi bo'yicha ko'p yillik tajriba va yuqori bilimli sudyalarda biriktirildi.

Ayni paytda, "Sudyalarda klubi"ning faoliyati tahlilidan ko'rinishicha, klub platformasi qonunlarni to'g'ri qo'llash, odil sudlovni amalga oshirishda yagona amaliyotni joriy etish, sudyalarda amaliyotda duch kelayotgan muammolarni aniqlash, odob-axloq normalari va sudya ma'naviyati bilan bog'liq masalalarda hamda amaldagi moddiy va protsessual qonun normalari to'g'ri qo'llash bo'yicha tavsiyalar va o'zaro savol-javoblar – sudyalarning bilim darajasini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil bo'ldi.

Shuningdek, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda sudyalari malaka hay'atlari va Sudyalarda oliy malaka hay'atining ish rejasi asosida sudyalarning o'z malakalarini oshirishga ko'maklashish uchun

yuqori sudlar faoliyati bilan tani-shib, malaka (stajirovka) o'tashi ham nazarda tutilgan.

Bugungi kunda, malaka oshirish kurslarida sudyalarga amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari va shu asosida qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini, ularni amaliyotda to'g'ri va bir xilda qo'llash yuzasidan tushuntirish, yo'llanmalar berish ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, kelgusida didaktik qobiliyatga ega bo'lgan, ya'ni dars berish uslublarini chuqur egallagan professor-o'qituvchilar va amaliyotchi mutaxassislarni yanada keng jalb etishga katta e'tibor qaratish lozim.

Shuningdek, kelgusida bevosita sudyalarning talabidan kelib chiqqan holda (sudya qaysi toifa ishlarni ko'rishda qiynalayotgan bo'lsa shu bo'yicha malakasini oshirish niyatida ekanligini bildirib, sudyalarda oliy maktabga muroj'at qilishlarini yo'lga qo'yish orqali) ular bilan onlayn o'quv, vebinar mashg'ulotlar tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Ta'lim jarayonida ishtirokchilar o'rtasida o'zaro muloqot hamda sudyalarni o'qitishning maqbul usullarini tanlash, ayniqsa, muhimdir. Xususan, o'quv xonalarda o'tkaziladigan mashg'ulotlarni sud amaliyotidagi turli vaziyatlarga bog'lash, bunday mashg'ulotlarni ko'chma tarzda yoki onlayn usulda o'tkazish ham kutilgan samarani beradi. Bunday ta'lim jarayoni stasionar holda yoki masofadan tashqir ham amalga oshirilishi mumkin.

Shuningdek, ayni paytda sudyalarda uchun o'quv uslubiy qo'llanmalar, dolzarb va yangi mavzular aks etgan dasturlar va boshqa yordamchi materiallar tayyorlanishi ham rejalashtirilmoqda va ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi bevosita sudyalarning bilim hamda kasbiy malakasi va odil sudlov samaradorligi oshirishiga ijobiy ta'sir etishi shubhasiz.

## YURIDIK TEXNIKUMLAR XODIMLARI STAJIROVKA O'TASHDI

TOSHKENT davlat yuridik universitetining tarkibiy bo'linmalarida Adliya vazirligi yuridik texnikumlari xodimlari stajirovka o'tashdi. Stajirovkadan o'tishning birinchi kunida TDYU mas'ul xodimlari tomonidan stajirovkadan o'tishdan ko'zlangan maqsad, ichki mehnat tartibi va kasb etikasi hamda texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari, shuningdek ish rejimining xususiyatlari hamda stajiyorga stajirovkadan o'tishi uchun zarur sharoitlar yuzasidan ma'lumot berildi.

TDYUning O'quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi)si tomonidan yuridik texnikum xodimlariga yuridik texnikumlarda ta'limning kredit-modul tizimi, o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish, mavjud soha mutaxassisliklarining davlat ta'lim standartlari tushuntirildi. Shuningdek, malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini ishlab chiqish hamda ularning mazmun-mohiyatini tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar berildi. Stajiyorlarga xalqaro mezon va standartlarga muvofiq yuqori ko'rsatkichlarga erishish hamda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga qaratilgan yuridik texnikumlar reytingini aniqlash mezonlari bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish yuzasidan nazariy va amaliy tavsiyalar ham berildi.

Akademik almashinuv doirasida yuridik texnikumlarda mahalliy va xalqaro akademik mobillikni tashkil etish, ish jarayonidagi xato va kamchiliklar ham muhokama qilindi va takliflar taqdim etildi.

Yuridik texnikumlarning monitoring va ichki nazorat bo'limi boshliqlari esa TDYUning Tashkiliy nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasida stajirovka o'tash davomida Yuridik texnikumlarda devonxona va arxiv ishini tashkil etish hamda hujjatlar almashinuvini "app.ijro.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali amalga oshirish, ish yuritish va elektron hujjat almashinuvini ta'minlash va boshqa ma'lumotlar bilan ham tanishib chiqishdi.

Hozirgi kunda Yuridik texnikumlarda "Elektron yuridik texnikum" platformasi yo'lga qo'yilgan. Yuridik texnikumlar xodimlari TDYUning Elektron universitet markazida "Elektron yuridik texnikum" platformasiga elektron ta'lim resurslari kiritish va nazorat ishlarni olishni tashkil etish, shuningdek, interaktiv xizmatlar ko'rsatilishi hamda internet tarmog'idan samarali foydalanishni tashkil etish, korporativ va lokal tarmoq ishlashini nazorat qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash yuzasidan amaliy tajribaga ega bo'ldilar.

Dilrom RAHIMOVA,  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
uzluksiz ta'lim boshqarmasi xodimi



# “SAYOHAT BARCHA UCHUN!”

loyihasi ish boshlaydi



## TURIZM – IMKONIYATLAR ESHIGI

BUGUNGI kunda eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri turizmdir. Turizm milliy iqtisodiyotning yuqori daromad keltiradigan, aholi turmush darajasini yaxshilovchi, aholining dam olishiga ko'mak beruvchi tarmoq bo'lgani uchun ham ushbu sohaning rivojlanishi har bir davlat uchun muhimdir.

Turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha mamlakatimizda keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Prezidentimizning shu yil 27-iyulda qabul qilingan "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori turizm sohasidagi imkoniyatlar uchun yangi bir bosqich bo'ldi. Ushbu qarorning qabul qilinishidan maqsad respublikamizga kelayotgan turistlar oqimini oshirish va turoperatorlarga davlat tomonidan qo'shimcha ko'maklar ko'rsatishdir. Shu maqsadda davlatimizga kelayotgan turistlar uchun 2024-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi imkoniyatlar berilishi nazarda tutilmoqda. Jumladan, turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasiga olib kelingan har bir turist uchun 20 AQSH dollaridan 100 AQSH dollarigacha bo'lgan ekvivalentda rag'batlantiruvchi subsidiyalar ajratiladi. Shuningdek, turoperatorlar va aviatashuvchilarning xorijiy mamlakatlardan "Samarqand", "Buxoro" va "Urganch" xalqaro aeroportlariga amalga oshirilgan charter aviaqatnovlari bo'yicha xarajatlarining bir qismi qoplanadi. Bu esa respublikamizga keluvchi turistlar uchun yana bir yengillikdir.

## DAVLAT TOMONIDAN MOLIVYIVYI QO'LLAB-QUVVATLASH

Mehmonxonalar sonini va ularda xizmat ko'rsatish sifatini oshirishni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tartibi ham takomillashtirilmoqda. Sayyohlar uchun mehmonxonalar kam va madaniy hordiq oladigan chekka hududlarda esa ularning yetishmasligi qonunlarni yanada isloh qilish kerakligini ko'rsatdi. Shu maqsadda 2024-yil 1-yanvardan boshlab besh qavatdan past bo'lmagan mehmonxonona 2026-yil 31-dekabr gacha foydalanishga topshirilgan taqdirda, investorlarning yangi mehmonxonani qurish (rekonstruksiya qilish bundan mustasno) va jihozlash uchun ketgan xarajatlarning bir qismini qoplab berish tizimi joriy qilinishi belgilandi. Mehmonxonona 3 yulduzli toifa uchun 60 ta xonadan kam bo'lmagan, 4 va 5 yulduzli toifa uchun 120 ta xonadan kam bo'lmagan xonalar fondiga ega bo'lishi kerak.

Davlat budjeti mablag'lari hisobidan yangi mehmonxonani qurish va jihozlash xarajatlari har bir xona uchun quyidagi miqdordalarda qoplab beriladi:

- uch yulduzli mehmonxonona – 40 million so'm;
- to'rt yoki besh yulduzli mehmonxonona – 65 million so'm.

Respublika bo'yicha mehmonxonalar mavjud bo'lmagan tuman, shaharlarda yangidan quriladigan mehmonxonalar, yuqorida ko'rsatilgan

xarajatlar 50 foizga oshirilgan miqdorda, ya'ni dastlabki ikkita 4 yoki 5 yulduzli toifaga ega mehmonxonalar, dastlabki uchta 3 yulduzli toifaga ega mehmonxonalar qoplab berilishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, 2026-yil 31-dekabr gacha dunyoning taniqli va nufuzli mehmonxonona brendlaridan foydalanuvchi O'zbekiston rezidentlari bo'lgan tashkilotlarning royalti xarajatlari franchayzing to'g'risidagi shartnoma kuchga kirgan vaqtdan boshlab uch yil mobaynida quyidagi miqdorda qisman moliyalashtirish nazarda tutilmoqda:

- uch yulduzli toifaga ega mehmonxonona uchun – 200 AQSH dollari;
- to'rt yulduzli toifaga ega mehmonxonona uchun – 400 AQSH dollari;
- besh yulduzli toifaga ega mehmonxonona uchun – 600 AQSH dollari.

Bunday imkoniyatlarning yaratilishi esa yurtimizda turizm sohasini kengaytirishda, xorijlik sayohatchilarni jalb etishda yanada samarali usullardan biri sifatida qaralmoqda.

## “TO'SIQSIZ TURIZM”

Mamlakatimizda nogironligi bor shaxslar uchun "To'siqsiz turizm" dasturi ishlab chiqildi. Har yili "Sayohat barcha uchun!" loyihasi amalga oshirilishi belgilandi. Ushbu loyiha orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ming nafardan nogironligi bo'lgan shaxslarning respublikamizning turizm salohiyati yuqori bo'lgan shaharlariga bepul sayohatlari tashkil qilindi va loyiha doirasida turizm, madaniy meros, konsert-tomosha obyektlari hamda aeroport, avto va temir yo'l vokzallarida nogironligi bo'lgan shaxslarning to'siqsiz harakatlanishi uchun zarur infratuzilma yaratish mexanizmlari joriy qilinishi belgilandi. Bunday imkoniyatlarning davlatimiz tomonidan berilishi turizm sohasini rivojlantiribgina qolmay, yurtimiz aholisining ham sayohat qilishi uchun yanada qulay muhit yaratilishiga olib keladi.

## 2023-YIL 1-SENTABR DAN AYRIM TALABLAR BEKOR QILINADI

Avvalo, turagentlarning elektron to'lovlar, bron qilish xizmatlarini ko'rsatadigan kamida ikkita xorijiy tildagi veb-saytga ega bo'lishi va turoperatorlarning elektron to'lovlar xizmatlarini ko'rsatadigan veb-saytga ega bo'lishi talab etilmaydi. Bu esa sohada ish yuritayotgan uchun birmuncha qulayliklar yaratadi.

Mazkur hujjatga, shuningdek, turizm sohasini yanada rivojlantirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi", Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida turizm yo'nalishida amalga oshiriladigan yirik investitsiya loyihalari ro'yxati ham ilova qilingan bo'lib, bu chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish nazarda tutilgan.

Mazkur hujjat yuritmizdagi turizm sohasini yanada rivojlantirishga turki bo'lgan omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bu esa sayyohlar uchun, albatta, manzur bo'ladi.



**PREZIDENTIMIZNING** "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yuridik sohani isloh qilishning yangi davrini boshlab berdi.



## Xalqaro standartlarga

## javob bera oladigan yuristlar kerak!

Huquqshunoslik yo'nalishi talabalari uchun chet tillarini o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv kuchayib borar ekan, huquqshunoslik fakulteti talabalari global muhitda amaliyot o'tashi uchun birgina tilni bilishi kifoya qilmay, boshqa tillarda ham kuchli bilimga ega bo'lishi zarur bo'lib bormoqda.

Talabalarning huquq sohasida bilim olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin ular o'zlar o'rgangan bilimni jahon miqyosida qo'llashi uchun, albatta, dunyo tillarini bilishlari ham talab etiladi. Bu bugungi davr taqozosi. Boshqa tillarni bilish global sharoitda huquqni qo'llashni xohlaydigan huquqshunos talabalar uchun juda foydalidir. O'zbekiston miqyosida o'zbek tili, Markaziy Osiyoda rus tili eng keng tarqalgan til bo'lsa-da, bo'lajak huquqshunoslar xalqaro doiradagi tillarni puxta bilishi, xorijiy tillarda ravon so'zlashishi katta ahamiyatga ega.

Chet tillarini o'rganish huquqshunos talabalarga xalqaro huquqiy o'zgarishlarni yanada samarali tadqiq va tahlil qilishda yordam beradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar advokatlar uchun tobora dolzarb bo'lgan huquqlarni kengaytirish va himoya qilishda davom etar ekan, ushbu hujjatlar tilni tushunishda huquqshunos talabalarga aynan xorijiy til, xususan ingliz tili yordam berishi aniq.

Hozirgi davrda huquqiy ingliz tilini o'qitish va o'rganish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Toshkent davlat yuridik universitetida yuridik ingliz tilini talabalarga chuqur o'rgatish uchun bir qancha ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Toshkent davlat yuridik universiteti va Buyuk Britaniyaning "Global Legal English" tashkiloti bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Hamkorlik doirasida huquqiy ingliz tilini imtihon orqali baholash ko'zda tutilgan. Hamkorlik natijasida TDYU O'zbekistondagi yagona imtihon markazi maqomini oldi. TOLES imtihoni huquqshunoslar ingliz tilini qay darajada bilishlarini aniqlab beradi va ularga tegishli sertifikatlar taqdim qiladi. Oliygo'nda ushbu imtihon ikki marotaba o'tkazilib, nomzodlar tegishli sertifikatlar bilan taqdirlandi. Sertifikat xalqaro ish beruvchilar xodim yollayotganida muhim sanaladi.

Chet tilini o'rganish xalqaro huquq yoki biznes huquqi kabi huquqning muayyan sohalarida ixtisoslashmoqchi bo'lgan huquqshunos talabalar uchun foydali. Muayyan sohaning xalqaro tilini bilish mijozlar, boshqa advokatlar va hamkasblar bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Chet tilini o'rganish huquqshunos talabalar uchun juda keng imkoniyatlarni yaratadi. Jumladan, til bilish ularning ish imkoniyatlarini oshirishidan tortib mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga ham imkon beradi.

Bundan tashqari, turli madaniyatlar va huquqiy tizimlarni tushunish, xorijiy mijozlarga eng yaxshi huquqiy xizmatlarni taqdim etishda aynan xorijiy tili bilish yuqori ahamiyat kasb etadi. Hozirgi globallashgan dunyoda xorijiy tillarni o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan paytda, huquqshunoslik fakulteti talabalari o'z sohalarida muvaffaqiyat qozonishlari uchun mavjud bo'lgan ko'plab imkoniyatlardan foydalanishlari kerak, albatta. Bo'lajak huquqshunoslarning xorijiy tillarni bilish darajasi nafaqat talabalarning, balki jamiyatimiz hayotining rivojlanishiga ham munosib hissa qo'shadi.



**Oyshajon USMONOVA,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi



**Mahbuba JO'RABOYEVA,** Toshkent davlat yuridik universiteti 3-kurs talabasi

## 8 ADABIY AYVON



# Bir tiyinlik hamyon

BIR kambag'al bechora kishi yo'lda ketayotlsa, oldidan bir hamyon chiqibdi. Ichini ochib qarasa, bir tiyin tanga bor ekan. Xayolida: "Ota-onam anchadan beri sut ichmagandi, bu pulga ularga sut olib boraman" deb o'ylab turgan ekan, hamyon og'irlashibdi.

Ichini ochib qarasa, hamyonda o'n tanga turganmish. Kambag'al: "Yo qudratingdan" deb hayron qolibdi. Keyin: "Undan ko'ra bu pulga bitta sigir olaman, shunda ota-onam, farzandlarim ham har kuni tongda sut ichadigan bo'lishadi", deb o'ylagan ekan, hamyon yana og'irlashibdi.

Bu safar uning ichida anchagina pul turgan ekan. Kambag'al: "O'tgan qish ota-onam sovuq uyda rosa qiynalishgandi, endi bu pulga uyni ta'mirlayman" degan ekan, hamyon yanayam og'irlashibdi.

Shunda kambag'al: "Xotinim anchadan beri bu uyda yashamayman, deb aytayotgandi, undan ko'ra, eski uyni ota-onamga qoldirib, yangi uy olib ko'chib ketamiz" deb o'ylagan ekan, hamyon avvalgi holatiga qaytib qolibdi. Ya'ni, ichidagi hamma pul yo'qolib, o'sha bir tiyin qolibdi. Xulosa o'zimizdan...

*T. H. Imtixon*



POLITSIYANING kriminal ishlar bo'yicha maxsus tezkor qidiruv bo'limiga bir politsiyachi qiz ariza topshirib, ishga kirmoqchi bo'libdi. Uni suhbatga chaqirib, fikrlash qobiliyatini sinab ko'rmoqchi bo'lishibdi. Xonada uchta ofitser o'tirgan ekan.

Dastlab oddiy savol berishibdi: "Termometr 15 daraja sovuq ekanini ko'rsatyapti. Ikkita termometr necha daraja sovuqligini ko'rsatadi?" Qiz: "O'n besh", – deb javob beribdi.

"Nyu Yorkda "Yetti qo'ng'iroq" nomi do'kon bor, lekin do'kon peshtoqiga sakkizta qo'ng'iroq osib qo'yishibdi. Nega?" Qiz: "Odamlar do'kon nomi bilan qo'ng'iroqlar soni mos tushmasligini aytish uchun do'konga kirishadi. Qancha ko'p odam kirsam, shuncha yaxshi", – debdi.

Uchinchi savol: "Samolyotni o'g'irlab, pul talab qilgan yolg'iz terrorchi ikkita parashyut so'raydi. Ikkinchi parashyut nima uchun?" Bunga javoban qiz: "Agar terrorchi bitta parashyut so'rasa, politsiya ochilmaydigan parashyut berib, terrorchining o'limini uyushtiradi. Ikkita parashyut so'rasa, kimnidir garovga olib, birgalikda samolyotdan sakraydi

deb ochiladigan parashyut berishadi", – debdi.

"Qirol va qirolichaga xizmatkor muz so'lingan ikkita stakanda suv olib kirdi. Ikkisida ham zahar bor. Qirol bir ko'tarishda ichdi, qirolicha sekin ichdi va o'ldi. Nega qirol zaharlanmadi?" Qiz: "Suvga emas, stakandagi muzga zahar qo'shilgan. Qirol muz erimadandan suvni ichib qo'yg'an", – debdi.

"Bir uydan murda topilibdi. Yonida o'chirilgan magnitofon bor ekan. Magnitofonni qo'yishsa, "O'zimni o'ldirishga qaror qildim. Alvido!" degan gap va o'q ov'ozini yozilgan ekan. Bu o'z-joniga qasd qilishmi, qotillikmi?" Qiz: "Qotillik, chunki o'lgan odam magnitofonni o'chirolmaydi", – deb javob beribdi.

Qizni ishga olishmoqchi bo'lishibdi. Xonadagi savatda uch dona olma turgan ekan. "Olmalarni uchalimizga teng bo'lib ber, ammo bitta olma savatda qolsin, shunda ishga olamiz", – deyishibdi. Qiz ikkita olmani ikkita politsiyachiga beribdi, uchinchi olmani esa uchinchi politsiyachiga savati bilan beribdi.

Shunday qilib, qiz ishga olinibdi. Siz bo'lganingizda bu imtihondan o'ta olaringiz?

FRANSIYANING buyuk qiroli Lyudovik XI (1423-1483) munajjimlar bashoratiga juda ruju qo'ygandi. Uning saroyda shaxsiy munajjimi bor edi va uni hurmat qilardi. Ajoyib kunlarning birida munajjim saroy ayollaridan biri sakkiz kundan so'ng vafot etadi, deb bashorat qiladi. Haqiqatan ham sakkiz kundan so'ng o'sha ayol vafot etganda Lyudovik dahshatga tushadi: munajjim bashorati to'g'ri chiqishi uchun ayolni yo'zi o'ldirgan yoki u juda kuchayib ketgan. Ikki holatda ham u o'dirilishi kerak edi.

Lyudovik saroyning yuqori qavatida joylashgan xonasiga munajjimi chaqiradi. Munajjim kelishidan oldin xizmatkorlarga ishora qilishim bilan bashoratchini ushlab derazadan pastga ulotqirib yuborasizlar deb, ularni ogohlantirib qo'yadi. Qirol turgan xona yuz metr balandlikda edi.

Munajjim qirol xonasiga kirib keldi, ishora berishdan avval unga Lyudovik oxirgi savol bilan murojaat qiladi: "Sen boshqalar taqdirini bilaman



## Munajjim hayotini qanday qutqarib qoldi?

deysan. Xo'sh, o'zingning taqdiring haqida ham biror narsa bilasanmi? Qachon o'lishingni aytchi menga?"

– "Men siz hazrati oliylaridan uch kun oldin o'laman", – deb javob beradi munajjim. Javobni eshitib qirol

turgan joyida mixlanib qoladi va hech qanday imo-ishora qilmaydi. Bashoratchi o'z hayotini qutqarib qolgandi. Shundan so'ng qirol bashoratchini qattiq qo'riqlab, uni saroyning eng yaxshi tabiblariga ko'rsatib, mudom uning sog'lig'i va hayotini muhofaza qilib, doimo sovg'a-salomlar ulashib turadi.

Bashoratchi munajjim Lyudovikdan keyin ham uzoq yillar yashadi, ammo u o'shanda odamlarni boshqarish san'atini namoyish qilgandi. Bu voqea odamlar sizga bog'liq bo'lib qolishlarining yorqin namunasidir. Sizdan judo bo'lish xo'jayin hayotiga, faoliyatiga xavf solsa, unga kulfat keltirsa – u hech qachon sizning xizmatdaringizdan voz kechmaydi. Bunday darajaga ko'tarilishning ko'p usullari bor. Lekin, ularning ichida, o'z ishining iste'dodli ustasi bo'lish doimo alohida qadrlanib kelingan.

**Robert GRIN. "Hokimiyatning 48 qonuni".  
Jaloliddin SAFOYEV tarjimasi**

**INSON  
va qonun**

MUASSIS:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGI

\*Adolat\* milliy huquqiy axborot  
markazi nashri  
info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda  
O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
0061-raqam bilan  
ro'yxatga olingan



**Bosh  
muharrir**

Asliddin  
ALIMARDON

**TAHRIR HAY'ATI**

Alisher Karimov  
Furqat Tojiyev  
Hayotjon Klichev  
Sevara O'rinboyeva  
Yorbek Iskandarov  
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar taqriz  
qilinmaydi va muallifga  
qaytarilmaydi.

**Navbatchi**  
Marusa Hosilova  
**Sahifalovchi-dizayner**  
Jamshid G'ofurov

**Nashr indeksi: 137**

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraj – 3500  
Buyurtma – 2353

Topshirish vaqti – 19:00  
Topshirildi – 20:00

**MANZILIMIZ:**

100115, Toshkent sh.  
Amir Temur shohko'chasi  
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18  
Obuna bo'limi:  
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5